# FARG‘ONA VILOYATIDA
# MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH MARKAZLARI FAOLIYATI TO‘G‘RISIDA

**2020-**yilda madaniyat va san’at muassasalari rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari davlat statistika hisoboti shakllari ma’lumotlari asosida keltirilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining kutubxona tizimiga kiruvchi muassasalar, muzeylar, teatrlar, konsert tashkilotlari, sirklar, hayvonot bog‘lari, madaniyat va istirohat bog‘lari, madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari ma’lumotlari kiritilgan.

Farg‘ona viloyatida teatrlar soni **5** ta bo‘lib, ularda berilgan spektakllar soni **577** ta, teatrga kelgan tomoshabinlar soni esa **82,5** ming kishini tashkil etadi.

*1-rasm*

**2020- yilda teatrlar tarmog‘i va faoliyati**




**2020-**yilda hududlar bo‘yicha shtatdagi artist xodimlar va shtatdan tashqari ishlovchilar jami **215** ta bo‘lib, ulardan ayollar **77** tadir, yani Farg‘ona shahrida **80** ta ishlovchilar soni, ulardan ayollar **37** ta bo‘lsa, Qo‘qon shahrida esa **55** ta artist xodimlar bo‘lib, ulardan **18** tasi ayollar, Marg‘ilon shahrida esa **80** ta artist xodimlar bo‘lib, ulardan **22** tasini ayollar tashkil qiladi.

*2-rasm*

**2020- yilda xududlar bo‘yica teatr xodimlari soni**




**2020-**yilda faoliyat turlari bo‘yicha konsert tashkilotlari soni jami 6 ta bo‘lib, ulardan filarmoniyalar **2** ta, gastrol-konsert tashkiloti 1 ta va mustaqil jamoalar soni 2 tani tashkil etadi. Konsert tashkilotlarini konsertlar soni jami 79 ta konsert berildi. Xizmat ko‘rsatilgan tinglovchilar soni 3063 ming kishi bo‘lib, ulardan qishloq aholisi 165 ming kishini tashkil etadi.

*3-rasm*

**2020-yilda faoliyat turlari bo‘yicha konsert tashkilotlarining tinglovchilari soni**




**2020-**yilda Farg‘ona viloyatida hayvonot bog‘lari soni **1** ta, uning umumiy maydoni **360** gektar bo‘lib, hayvonot dunyosi turlari soni **112** tadir. Dam oluvchilar tomonidan qatnovlar **76,5** ming kishi bo‘lib, ulardan **55,9**ani bolalar tashkil qiladi.

*4-rasm*

**2020-yilda hayvonot bog‘larining o‘simlik va hayvonot dunyosi turlari soni**




**2020-** yilda madaniyat va istirohat bog‘lari Farg‘ona viloyatida **12** ta, ularni umumiy maydoni 434,7 gektarni tashkil etadi. Viloyatda dam olish obyektlari soni **53** ta, attraksionlar soni **129** tadir. Madaniyat va istirohat bog‘lariga jami qatnovlar soni 15,6 ming kishi bo‘lib, shu jumladan bolalar tomonidan qatnovlar soni 10,2 dir.

**2020-yilda madaniyat va istirohat bog‘lari faoliyati bo‘yicha**




*4-rasm*

*5-rasm*

**2020- yilda hududlar bo‘yicha madaniyat va istirohat bog‘laridagi xodimlar soni**




*6-rasm*

**2020-yilda madaniyat va aholi dam olish markazlari tomonidan o‘tkazilgan tadbirlar soni**



**2020-** yilda Farg‘ona viloyatida kutubxona muassasalari soni **32** ta, kutubxona fondi 2668079 ming nusxani tashkil etib, kutubxonalardan foydalanuvchilar soni **259,7** ming kishidir, foydalanishga berilgan kitob va jurnallar esa **3753,7** ming nusxani tashkil etadi.

**O‘rtacha bitta foydalanuvchiga  to‘g‘ri keladigan foydalanishga berilgan kitob va jurnallar soni,** *birlik*




*7-rasm*

**2020-yil 1-yanvar holatiga kutubxona muassasalari soni**



Farg‘ona viloyatida muzeylar soni **13** ta, muzeylarga tashrif  buyuruvchilar soni **102,7** ming kishi bo‘lib,  ulardan o‘quvchi va talabalar soni **62,9**ta. Muzeyda o‘qilgan ma’ruzalar soni **255** ta, ko‘rgazmalar soni esa **194** ta. Farg‘ona viloyatida muzeylar tomonidan tashkil etilgan ekskursiyalar soni **2314** ta bo‘lib, qatnashganlar soni **42,3** ming kishi.

*8-rasm*

**2020-yilda muzeylar fondlari**

